

**TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDA
TAKROR SO'ZLARNING QO'LLANISHI**

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Xomidova Farzona Isomiddin qizi

E-mail: farzonaxamidova2@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida takror so'zlarning badiiy-uslubiy funksiyalari tahlil qilinadi. Asardagi takrorlar nafaqat til birliklarining qaytarilishi sifatida, balki qahramon ruhiyati, ichki kechinmalar, voqelikning drammatizmi va matnning emosional-ekspressiv ohangini kuchaytiruvchi vosita sifatida o'rganiladi. Tadqiqot davomida leksik, sintaktik va kompozitsion takrorlarning vazifalari aniqlanib, ularning yozuvchining individual uslubini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, roman poetikasida takrorlar milliy ruh, xotira, iztirob va sadoqat g'oyalarini teran ifodalashda muhim estetik-me'yoriy vosita bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit s o'zlar: *Tog'ay Murod; "Otamdan qolgan dalalar"; takrorlar; leksik takror; sintaktik takror; kompozitsion takror; uslub; lingvopoetika; badiiylilik; emosional-ekspressivlik; matn poetikasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются художественно-стилистические функции повторов в романе Тогая Мурода «Поля, оставшиеся от отца». Повторы рассматриваются не только как языковое явление, но и как средство выражения внутреннего состояния героев, драматизма происходящих событий и эмоционально-экспрессивного звучания текста. В исследовании выявлены особенности лексических, синтаксических и композиционных повторов, а также их роль в формировании индивидуального стиля писателя. Полученные результаты показывают, что повторы играют значимую эстетическую роль в раскрытии национального*

духа, памяти, боли и преданности в поэтике романа.

Ключевые слова; *Тогай Мурод; «Поля, оставшиеся от отца»; повторы; лексический повтор; синтаксический повтор; композиционный повтор; стиль; лингвопоэтика; художественность; эмоционально-экспрессивность; поэтика текста.*

Annotation: *This article examines the artistic and stylistic functions of repetition in Tog‘ay Murod’s novel “Otamdan qolgan dalalar” (“The Fields Inherited from My Father”). Repetition is analyzed not merely as a linguistic phenomenon but as a narrative device that conveys the characters’ inner states, enhances the dramatic dimension of events, and intensifies the emotional-expressive tone of the text. The study identifies lexical, syntactic, and compositional types of repetition and discusses their role in shaping the author's individual style. The findings demonstrate that repetition serves as an important aesthetic tool in expressing national spirit, memory, pain, and loyalty within the poetics of the novel.*

Key words: *Tog‘ay Murod; Otamdan qolgan dalalar; repetitions; lexical repetition; syntactic repetition; compositional repetition; style; linguopoetics; artistry; emotional expressiveness; text poetics.*

O‘zbek adabiyotida badiiy nutqning ekspressivligi, obrazlilik darajasi va yozuvchi uslubining shakllanishida takrorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Takror hodisasi lingvopoetik ko‘lamda matnning ritmik-intonatsion tuzilishini mustahkamlaydi, qahramonning ruhiy kechinmalarini teran ifodalaydi hamda voqea-hodisalar dramatizmini kuchaytiradi. Tog‘ay Murod ijodi, xususan, “Otamdan qolgan dalalar” romani tilidagi takrorlar yozuvchining individual uslubini namoyon etuvchi eng muhim vositalardan biridir. Asar davomida kuzatiladigan fonetik, leksik, sintaktik va kompozitsion takrorlar nafaqat til birliklarining takroriy qo‘llanishi, balki milliy ruh, ma’naviy xotira, iztirob va sadoqat kabi g‘oyalarni yoritishda o‘ziga xos poetik tizimni yaratadi. Mazkur maqolada roman matnidagi takrorlarning turlari, badiiy-uslubiy vazifalari hamda ularning matn poetikasini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy asoslarda tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyoti, uning ichida esa zamonaviy nasr, o‘zining rang-

barangligi va betakrorligi bilan ajralib turadi. Shu adabiyotda muhim o'rin tutuvchi asarlar orasida Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani jalb etadi. Bu asar nafaqat o'zining mazmuni va qahramonlari bilan, balki til va uslubiy jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu asarda takror so'zlar ya'ni leksik takrorlar ma'nolarni kuchaytirish, obrazlarni yanada ochiqroq ifodalash va hissiyotlarni jonlantirish uchun mo'jallangan. Takror so'zlarning qo'llanishi adabiyotda so'z san'ati va ifoda uslubining muhim jihati bo'lib, u asar muallifining ma'naviy maqsadlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Tog'ay Murodning ushbu asrida takror so'zlar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hissiyot va kechinmalarini ochib berishda ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun "otamdan qolgan dalalar" romanida takror so'zlarning qo'llanishi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Tog'ay Murodning romanidagi takror so'zlarning badiiy funksiyalarini aniqlash, ularning ma'naviy yukini chuqur o'rganish va asar kontekstida ularning qo'llanishdagi uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Hozirgi kunda bu mavzu bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ko'proq tilshunoslik va badiiy tahlilga qaratilgan bo'lib, lekin takror so'zlarning badiiy ifoda vositasi sifatida o'ziga xos jihatlar ko'proq o'rganilishi zarur. Shuning uchun, Tog'ay Murodning ushbu romandagi takror so'zlar orqali o'quvchilarga yetkaziladigan ma'no va hissiyotlar, shuningdek, ularning asar ichidagi joylashuvi va ahamiyati alohida e'tiborga olinadi. Shunday qilib "Otamdan qolgan dalalar" romanida takror so'zlarning qo'llanishi adabiy jarayonni yanada boyitadi va roman tahlilida muhim o'rin egallaydi.

Metodologiya:

Tadqiqotning

metodologik asosini lingvopoetika, matn lingvistikasi, stilistika va badiiy matn semantikasi tashkil etadi. Romandagi takror so'zlarning xususiyatlarini aniqlashda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: Deskriptiv (tasviriy) tahlil usuli Roman matnida uchraydigan leksik, sintaktik va kompozitsion takrorlar aniqlanib, ularning shakl va ko'rinishlari tasniflandi. Kontekstual tahlil Takrorlarning qaysi kontekstda qanday ma'no yukini bajarayotgani, qahramon ruhiyatini ochishdagi o'rni va matnning emosional-ekspressiv kuchini oshirishdagi funksiyasi o'rganildi. Semantik-komponent tahlil Takror so'zlarning semantik tarkibi, ma'no kengayishi

va obraz yaratishdagi badiiy vazifasi aniqlab borildi. Har bir takrorning matndagi g'oya bilan bog'liqligi ochib berildi. Struktural tahlil. Sintaktik takrorlar — anafora, epifora, parallel konstruktsiyalar — va kompozitsion takrorlarning matn tuzilishiga, ritmik ohangga va poetik sikliklikka ta'siri tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil Romandagi takrorlar Tog'ay Murodning boshqa asarlari bilan qiyoslab o'rganildi, bu orqali roman poetikasiga xos individual uslub unsurlari belgilandi. Interpretativ (talqin) usuli Takrorlar orqali ifodalangan milliy ruh, ota merosi, iztirob va sadoqat kabi g'oyalar badiiy-ma'naviy jihatdan sharhlab berildi. Tadqiqotimning asosiy maqsadi Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida takror so'zlarning qo'llanishini o'rganishdir. Avvalo, tadqiqotimning metodologik asosini belgilash maqsadida adabiyotshunoslik, tilshunoslik va matn tahlili sohalaridagi mavjud nazariyalar va yondashuvlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda biz Tog'ay Murodning romanidagi takror so'zlarning ma'no, uslubiy va estetik jihatlarini o'rganish uchun ichki va tashqi kontekstini hisobga oldik. Takror so'zlarning ba'diyy asardagi rolini urganishda ularning ma'naviy, imotsional va psixologik tasirini aniqlash maqsadida mantiqiy tahlil amalga oshirildi. Roman matnida iqtiboslar va misollar keltirish orqali takror so'zlarni o'rni va ularni funksiyalarini aniqlashga qaratilgan tizimli yondashuv qo'llanildi. Bu jarayonda takror so'zlarning kontekstda qanday ishlatilishi va ularning ba'diyy ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdik, takror so'zlarning uzaro bog'liqligi va ularning romandagi boshqa til vositalari bilan aloqasini aniqlash uchun qiyosiy tahlil usuli ham qo'llanildi. Shunday qilib, tadqiqotimizda belgilangan maqsad va vazifalar asosida takror so'zlarning qo'llanishi bo'yicha keng qamrovli tahlil amalga oshirildi, bu esa ba'diyy matinning estetik va emotsional ko'rinishlarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon berdi.

Muhokama va natijalar: Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida takror so'zlarning qo'llanishi ko'plab tilshunoslik va adabiyotshunoslik jihatidan muhim o'rin tutadi. Romanning mazmuni va ifodasi orqali muallif o'z fikrini va hissiyotlarini yanada chuqurroq ifodalash uchun takror so'zlardan foydalanish orqali o'quvchiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, takror so'zlar roman ichida turli vazifalarni bajaradi; ular nafaqat

ma'lumot berish, balki hissiy yukni oshirish, dramatic vaziyatlarni kuchaytirish va obrazlarni yanada jonlantirishda muhim rol o'ynaydi. Takror so'zlarning qo'llanishi esa o'quvchiga muallifning obrazli fikrlash tarzini yaqqol his qilish imkonini beradi. Masalan; roman ichidagi takroriy ifodalar har bir qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini va jamiyat bilan aloqasini yanada ravshanlashtirib beradi. Bu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, takror so'zlar nafaqat tilning ifodasi, balki san'atning bir vositasi sifatida ham xizmat qiladi, bu esa o'quvchini yanada chuqurroq fikr yuritishga va muallifning maqsadlarini anglashga undaydi. Leksik takrorlarning roman matnidagi funksiyasi Asarda leksik takrorlar qahramonning ichki kechinmalarini aks ettiradi. "Dala", "ota", "meros", "yer" kabi so'zlarning takror qo'llanishi qahramon dunyoqarashining markaziy o'qini shakllantiradi. Bu takrorlar semantik maydon yaratib, asarning g'oya-yu mazmunini mustahkamlaydi. Sintaktik takrorlar — dramatizm yaratuvchi vosita Gap boshidagi takrorlar (anafora) qahramonning ruhiy holatini uzluksiz jarayon sifatida ko'rsatadi. Gap oxiri takrorlari (epifora) esa o'quvchini ma'lum bir g'oyaga qayta-qayta yo'naltiradi. Parallel konstruktsiyalar voqealar dinamikasini kuchaytirib, dramatik ohangni yaratadi. Kompozitsion takrorlarning struktura yaratishdagi o'rni Romanda ayrim epizodlarning qayta takrorlanishi kompozitsion sikliklikni hosil qiladi. Bu uslub o'tmish va zamon o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni mustahkamlaydi hamda matnning umumiy ritmiga yaxlitlik beradi. Milliy ruh va xotira poetikasini kuchaytiruvchi takrorlar "Otamdan qolgan dalalar" iborasining roman davomida takrorlanishi milliy xotiraning asosiy timsoliga aylanadi. Takrorlar asarning badiiy-estetik kuchini oshirib, milliy ruhiyatni o'quvchiga sezdiradi. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani shubhasiz, takror so'zlar orqali o'ziga xos hissiyotlar va obrazlarni yaratishda muhim bir misol bo'lib xizmat qiladi, bu orqali adabiyotshunoslik sohasida yana bir bor takror so'zlarning ahamiyatini va ularning ijodiy imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murodning asaridagi takror so'zlar nafaqat badiiy ifoda vositasi sifatida, balki muallifning g'oyalarini va hissiyotlarini kuchaytiruvchi elementlar sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu takrorlanishlar,

asarning hissiy va ruhiy holatini yanada chuqurlashtirib, o'quvchiga muallifning niyatlarini va o'ziga xos uslubini yanada yaqqol aks ettiradi. Shuningdek, takror so'zlar orqali muallif o'z o'quvchilariga ma'lum bir ruh, kayfiyat yoki muayyan fikrni yetkazish maqsadida ko'proq ta'sirchan tilda ifoda etish imkonini beradi. Amaliy tavsiyalar sifatida, badiiy adabiyot o'qituvchilarga takror so'zlarni o'qitishda uning ahamiyatini ta'kidlash, o'quvchilarni badiiy asarlarni chuqurroq anglashga undash maqsadida takror so'zlarning rolini o'rganishni tavsiya etishimiz mumkin. Shuningdek, takror so'zlar orqali mualliflarning individual uslublarini aniqlash va ularning badiiy asar yaratish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilish, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida yangi yo'nalishni ochishi mumkin. Shu bois "Otamdan qolgan dalalar" romanida takror so'zlarning qo'llanishi, badiiy adabiyot va tilshunoslik sohasidagi muhim bir tadqiqot mavzusi sifatida qabul qilinishi va yanada kengroq o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTTLAR RO'YXATI:

1. Tog'ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. – Toshkent: Sharq, 2018. – 256 b.
2. Qosimov B. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Fan, 2009. – 384 b.
3. Saidov U. *O'zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. – 312 b.
4. Shodmonov Z. "Badiiy matnda leksik takrorlarning uslubiy vazifasi". – *Filologiya masalalari*, 2016, №3. – B. 45–52.
5. G'afforova N. "Badiiy nutqda takrorlarning pragmatik funksiyasi". – *O'zbek tili va adabiyoti*, 2019, №5. – B. 72–81.
6. Hojiev A. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Universitet, 2007. – 240 b.
7. Normatov U. "Tog'ay Murod prozasining badiiy xususiyatlari". – *Jahon adabiyoti*, 2015, №10. – B. 92–99.
8. Rahmonov S. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 368 b.
9. Zunnunov A. "Proza tilida takrorning estetik vazifasi". – *O'zbek tili va adabiyoti*, 2017, №2. – B. 54–60.